

b) oqova xizmati uchun — «Iste molchi» oqova tizimining ichki qismi hisoblanuvchi, magistrat oqova tarmog'iga ulanish nuqtasidagi chiqaruv qudug'i. Agar chiqaruvchi oqova qudug'i (kamerasi) magistrat oqova tarmog'ida joylashgan bo'lsa, ushbu qudug' «Ta minotchi» tashkiloti oqova tarmog'ining bir qismi hisoblanib, unga tutashiruvchi foydalanish chizig'i esa «Iste molchi»ning mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

III. Taraflarning huquq va majburiyatlari

3.1. «Iste molchi» ning huquqlari:

3.1.1. Tegishli sifati darajasidagi ichimlik suv va oqova suv tarmoqlariga xizmat ko'rsatish talablarini bajarimganligi uchun «Ta minotchi» tashkilotidan qonunchilikda va shartnoma shartlarida ko'rsatilgan miqdordagi jarima (penya) lar to'lashni talab qilish;

3.1.2. «Ta minotchi» tashkilotini shartnomani bekor qilish to'g'risida, uning bekor qilinishidan kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda va ushbu muddatda suv ta'minoti yoki oqova suvni chiqarish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni to'liq amalga oshirgan holda shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

3.1.3. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlar va ma'lumotnomani shaxsan yoki o'z vakili orqali bepul olish;

3.1.4. «Ta minotchi» tashkilotidan ichimlik va oqova suv xizmatlari hajmi va sifati, ularni amalga oshirish shartlari, to'lovlar tarifi va tartiblarining o'zgarishi haqidagi ma'lumotlarni bepul olish;

3.1.5. Ichimlik va oqova suv xizmatlari ko'rsatilmayotganligi yoki ularning past sifadda ekanligi to'g'risidagi dalolatnoma taqdim etilgandan keyin 18 soat mobaynida «Ta minotchi» tashkilotidan nosozlik va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ma'lumotlarni olish;

3.2. «Iste molchi» ning majburiyatlari:

3.2.1. Oqova tarmog'ida avariya bo'lgan taqdirda yerto'la xonalarni suv bosishidan saqlaydigan barcha o'chiruvchi qurilmalarning but saqlanganligi, ishga yaroqliligi va normal texnik holatda bo'lishini ta'minlash;

3.2.2. Iste molchiga qarashli sanitariya asboblari, oqova tarmoqlari, inshoot va qurilmalarda tambaning yo'qligi, reviziyalarning zich yopilmasligi, nosoz texnik holati tufayli iste molchining oqova tarmoqlarida yoki «Ta minotchi» tashkilotida, ichimlik suv va oqovaning tashqi tarmoqlarida avariya (tiqilib qolish, suv bosish) sodir bo'lishi sababli yerto'la xonalarni suv bosishi oqibatida yetkazilgan zararni qoplashi;

3.2.3. «Ta minotchi» tashkiloti bilan hisob-kitob qilish uchun foydalaniladigan suvni hisobga olish pribori, aylanma liniya zulfini, yong'in zulfini, gidrantlar va uning hududida yoki tasarrufida bo'lgan hamda «Ta minotchi» tashkiloti tomonidan plombalangan boshqa ichimlik suv qurilmalaridagi plombalarning butligi va saqlash;

3.2.4. «Ta minotchi» tashkilotiga ichimlik va oqova suv tarmoqlari, inshootlari va qurilmalarning shikastlanishi tufayli yetkazilgan zarar uchun qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlik;

3.2.5. Ichimlik suvi ta'minotining yong'inga qarshi tizimidan foydalanish to'xtatilganda «Iste molchi» 24 soat mobaynida «Ta minotchi» tashkilotiga plomba uzilgani to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi va zulfnlarni plombalash uchun «Ta minotchi» tashkiloti vakilini chaqirish;

3.2.6. «Ta minotchi» bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq majburiyatlariga rioya qilish, har oyning 23 dan 25 gacha sanasida ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va aniq yechib olish hamda ushbu ko'rsatkichlarni «Ta minotchi» ga kechikmagan holda taqdim qilish va to'lovni amalga oshirish.

3.3. «Ta minotchi» ning huquqlari:

3.3.1. «Ta minotchi» tashkiloti, iste molchimi 7 kun avval yozma ravishda ogohlantirgan holda, quyidagi holatlarda suvni uzatish va oqova suvlarni qabul qilishni to'liq va qisman to'xtatishi mumkin:

a) «Iste molchiga» tegishli va uning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilma va inshootlarning texnik holati qoniqsiz bo'lganda va «Ta minotchi» tashkiloti vakillari tomonidan aniqlangan texnik foydalanishdagi xatoliklarni bartaraf etish bo'yicha «Ta minotchi» tashkiloti talablari iste molchi tomonidan bajarilmaganda;

b) «Ta minotchi» tashkiloti mansabdori shaxsi iste molchining suvni hisobga olish uzeli, ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalari va inshootlarini nazorat qilish hamda suvni hisobga olish pribori ko'rsatkichlarini qayd etish, plombalarni o'rnatish maqsadida ko'zdan kechirish, belgilangan limitdan ko'p sarf qilinganda suv berishni muvofiqlashtirish va «Ta minotchi» tashkiloti naryadlari bo'yicha boshqa ishlarni bajarish uchun kelganda iste molchi tomonidan assosiz ravishda kiritilganida;

v) «Ta minotchi» tashkiloti tomonidan iste molchi ulangan ichimlik va oqova suv tarmoqlari, qurilmalarida rejali-ogohlantirish tarzida ta'mirlash hamda xizmat ko'rsatish ishlari o'tkazilganda, shuningdek, yangi iste molchilarni ulash ishlari amalga oshirilganda;

g) «Iste molchi» tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tizimlari yoki tarmoqlariga subabonentlarning o'z boshimchalik bilan ulanganini aniqlanganda;

d) «Iste molchi» tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan muddatlarda haq to'lanmaganda;

yc) «Iste molchi»ning tasarrufida bo'lgan ichimlik va oqova suv tarmoqlariga, qurilmalariga «Ta minotchi» tashkilotidan ulanish uchun belgilangan tartibda ruxsatnoma olgan subabonentlarning tegishli tartibda ulanishi rad etilganda;

yo) «Iste molchi» tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganda va u oqizilayotgan oqova suvlari miqdori va tarkibi bo'yicha shartlarga rioya qilmaganda.

3.3.2. «Ta minotchi» tashkiloti quyidagi holatlarda oldindan xabar qilmasdan suv uzatishni to'xtatish yoki qisman to'xtatishga haqli:

a) «Ta minotchi» tashkilotining elektr ta'minoti to'xtatilganda;

b) Tabiiy ofatlar ro'y berganda;

v) Avariya holatlarida;

g) Yong'in chiqqan joylarga suv uzatishni ko'paytirishga zarurat tug'ilganda.

3.4. «Ta minotchi»ning majburiyatlari:

3.4.1. Suv ta'minoti va oqova suvni chiqarib yuborish yuzasidan shartnoma shartlarini bajarish;

3.4.2. Ichimlik va oqova suv tarmoqlarining texnik holatini muntazam ravishda nazorat qilib borish;

3.4.3. Tarmoqdagi ichimlik suv sifati monitoringini olib borish;

3.4.4. Iste molchilarning ichimlik va oqova suv tizimlariga ulangan ichimlik suv va oqova tarmoqlari, inshootlari hamda qurilmalarining holatini va ulardan foydalanilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish, ulardan samarali foydalanishni tashkillashtirishda iste molchilarga amaliy yordam ko'rsatish;

3.4.5. Iste molchilar tomonidan suvni behuda sarfining olidini olish, sanoat korxonalari va ularga tenglashtirilgan korxonalarda suv berish bo'yicha belgilangan limitlarga rioya qilinayotganini muntazam ravishda nazorat qilish;

3.4.6. Suv iste'moli belgilangan me'yor (limit)lardan ortib ketgan holatlarda «Ta minotchi» tashkilotlariga belgilangan tariflarga nisbatan orttiriluvchi 10,0 koeffitsiyentni qo'llash;

3.4.7. Oqova suv tizimiga oqizilayotgan oqovalarning sifati monitoringini ta'minlash;

3.4.8. Shartnoma shartlariga muvofiq o'z majburiyatlarini bajara olmagan holatlarda iste molchiga penya hisoblash;

3.4.9. Iste molchilarning shartnoma shartlariga rioya etishmagani masalasi bo'yicha sud organlariga murojaat qilish;

3.4.10. Ichimlik va oqova suv xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlarning holati, qarzlarning yo'qligi haqidagi ma'lumotlarni iste molchilarga bepul taqdim etish;